

TA'LIM TIZIMIDA EKOLOGIK TA'LIM-TARBIYANING PEDAGOGIK - PSIXOLOGIK ASOSLARI

Tajiyev Javlon Karimboyevich

Urganch davlat pedagogika insituti Texnologik ta'lim kafedrası dots.v.b

Kuryozova Mahfuza Ruslanbek qizi

*Urganch davlat pedagogika insituti Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodika
(Texnologik ta'lim) mutaxassisligi 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: *Ta'lim tizimida ekologik tarbiyaning ahamiyati, uni amalga oshirishda pedagogik va psixologik yondashuvlarning o'rni, yosh avlodda ekologik madaniyat va ongni shakllantirishning samarali usullari.*

Abstract: *The importance of environmental education in the education system, the role of pedagogical and psychological approaches in its implementation, effective methods of forming environmental culture and awareness in the younger generation.*

Kalit so'zlar: *Ekologik ta'lim, ekologik tarbiya, pedagogik asoslar, psixologik yondashuv, ekologik ong, ekologik madaniyat, ekologik tafakkur.*

Keywords: *Environmental education, environmental education, pedagogical foundations, psychological approach, environmental awareness, ecological culture, ecological thinking.*

Kirish. XXI asrda insoniyat duch kelayotgan eng muhim muammolardan biri – bu ekologik muammolar va atrof-muhit ifloslanishidir. Ushbu muammolarning asosiy sababi insonning tabiatga bo'lgan noto'g'ri, iste'molchi munosabatidadir. Shu sababli, bugungi kunda ekologik madaniyat va ekologik ongni shakllantirish, uni tarbiyalash masalasi ta'lim tizimining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Bu jarayonda pedagogik va psixologik yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Global ekologik muammolarning keskinlashuvi insoniyatning tabiat bilan o'zaro munosabatlarini qayta ko'rib chiqishni, yosh avlodga ekologik ong va ekologik madaniyatni shakllantirishni taqozo qiladi. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim tizimida ekologik ta'lim-tarbiyani rivojlantirish dolzarb masalaga aylandi.

Ekologik ta'lim — bu o'quvchilarni tabiatni muhofaza qilish, undan oqilona foydalanish, ekologik muammolarga nisbatan ongli va faol pozitsiyani shakllantirishga o'rgatish jarayonidir.

Ekologik tarbiya — bu insonning atrof-muhitga ongli, mas'uliyatli va ehtiyotkor munosabatini shakllantirishga qaratilgan ijtimoiy-pedagogik jarayondir. Ekologik tarbiya

o‘z ichiga insonning tabiatga nisbatan axloqiy munosabatini shakllantirish, ekologik qadriyatlar va hissiy-emotsional munosabatlarni rivojlantirishni oladi.

Ekologik madaniyat - kasbiy faoliyatda qaror qabul qilish uchun ekologik javobgarlikni his qilish, tabiat muhofazasidagi bilimlarga egaligi, jahon va xududiy darajada ekologik muammolarni ochishda qatnashishga tayyorgarligidir. Ekologik ta’lim pedagogikasining asosiy vazifasi – shaxsda tabiatga nisbatan to‘g‘ri munosabatni, ekologik madaniyatni, mas’uliyat hissini shakllantirishdan iborat. Bu jarayonda quyidagi yondashuvlar muhim o‘rin tutadi:

1) **Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim** – har bir o‘quvchining ekologik dunyoqarashi va qiziqishlarini inobatga olgan holda ta’lim berish.

2) **Integratsiyalashgan yondashuv** – ekologik bilimlarni biologiya, geografiya, kimyo, adabiyot kabi fanlar orqali uyg‘unlashtirib berish.

3) **Faol o‘qitish metodlari** – amaliy mashg‘ulotlar, ekskursiyalar, ekologik loyihalar, rolli o‘yinlar orqali o‘quvchilarda chuqur taassurot qoldirish.

Shuningdek, ekologik ta’limda o‘quvchi faol ishtirok etuvchi sub’ekt sifatida ko‘riladi. Bu esa o‘qituvchidan zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llashni, ekologik muammolarni muhokama qilishni va yechim topishga o‘rgatishni talab qiladi.

Texnologiya mashg‘ulotlari misolida ekologik tarbiya berish imkoniyatlarini ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, servis xizmati yo‘nalishi oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish texnologiyasi bo‘limini o‘qitish jarayonida uy-ro‘zg‘orda foydalaniladigan buyumlar hamda oziq-ovqat mahsulotlarini tashish uchun ishlatiladigan idishlarning aksariyat qismini plastmassalar va plastik idishlar tashkil qilishini inobatga olgan holda, ushbu idishlar haqida tushuncha berish va ulardan uzoq muddat foydalanish inson salomatligi uchun zararli ekanligini, shuningdek plasmassalar va plastik idishlar ko‘p yillar davomida chirmasligi ekologiyaga ham salbiy ta’sirini korsatishi, shuning uchun plastmassa va plastik materiallarni ishlatib bo‘lgandan keyin maxsus chiqindi tashlash joylariga ularni alohida ajratib olgan holda tashlash lozimligini uqtirish orqali o‘quvchi yoshlarda ekologik madaniyatni shakllantirishga erishishimiz mumkin.

Ekologik tarbiya samaradorligini oshirishda o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini inobatga olish muhimdir:

1) **Boshlang‘ich sinflarda** tabiatga muhabbat va qiziqishni uyg‘otish, his-tuyg‘ular orqali ta’sir etish asosiy vazifadir. Bu davrda o‘yin va tasviriy san’at orqali ekologik ong shakllantiriladi.

2) **O‘rta yoshdagi o‘quvchilarda** sabab-oqibat bog‘liqliklarini tushunish rivojlanadi. Ular ekologik muammolar haqida mustaqil fikr yuritishni boshlaydi.

3) **Yuqori sinflarda** esa tanqidiy fikrlash va ekologik masalalarga mas’uliyat bilan qarash shakllanadi. Bu bosqichda ekologik loyihalar, ijtimoiy tadbirlar muhim o‘rin tutadi.

Ekologik tarbiyada emotsional ta’sir, motivatsiya, o‘zini anglash kabi psixologik jarayonlarga alohida e’tibor qaratish kerak. Bu orqali ekologik ong faqat bilim darajasida emas, balki ichki e’tiqod sifatida shakllanadi. “Ekologik tafakkur”, “ekologik ong” negizida inson tabiat kuchlarini tushunish va ular ustidan o‘z hukmronligini o‘tkazishdan oldin unga qadriyat sifatida qarashi, u bilan ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish zaruriyatini anglash imkonini beradigan yangi obrazlar va belgilar tizimini yaratadi.

Xulosa. Ekologik ta’lim-tarbiya nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilish, balki insonda ijtimoiy mas’uliyat, axloqiy qarashlar va barqaror rivojlanish tamoyillariga sodiqlikni shakllantiradi. Ta’lim tizimida ekologik yondashuvni kuchaytirish orqali biz kelajak avlodni ongli, mas’uliyatli va tabiatni qadrlaydigan va himoya qiladigan insonlar qilib tarbiyalaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Niyozova N. *Ekologik ta’lim asoslari*. – T.: O‘qituvchi, 2017.
2. Otaqulov U. X. *ekologiya va atrof – muhit muhofazasi (ma’ruzalar to‘plami)* Qarshi - 2022
3. Qodirov S. *Ekologiya va atrof-muhit muhofazasi*. – T.: TDPU, 2021.
4. Tajiyeu J.K. Development of professional competences of future technology teachers by improving the educational and methodological support of folk crafts and artistic design. // Science and innovation international scientific journal volume 2 ISSUE 4 april 2023 UIF-2022: 8.2//ISSN: 2181-3337. 2023. – P. 315-322.
5. Vygotskiy L.S. *Pedagogik psixologiya*. – M.: Pedagogika, 1991.
6. I. Hamdamov, Z. Bobomurodova, E. Hamdamova *Ekologiya o‘quv qo‘llanma* T.-2009 y 178 b.7-8-b.